Turin politexnika universiteti talabalari bilan uchrashuv: sohaning dolzarb savollariga javoblar va aviatsiya rivoji

2026 1 May

Milliy aviatsiyani yosh, shijoatli kadrlar oqimisiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Kecha, 30-aprel kuni “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi Shuxrat Xudaykulov Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari bilan ochiq va ilhomlantiruvchi uchrashuv o'tkazdi.



Tadbir iloji boricha samimiy va jonli muloqot formatida o‘tdi. Turli fakultet talabalari global aviatsiya tendensiyalarini chuqur tushunishlarini namoyish etib, o‘z fikrlari bilan dadil o‘rtoqlashdilar va rahbariyatga eng dolzarb savollarni berdilar.



Bo‘lajak mutaxassislarni haqiqatdan ham jiddiy mavzular spektri qiziqtirdi. Jonli suhbat davomida aviakompaniya tuzilmalarida kasbiy amaliyot o‘tash imkoniyatlari, yangi muntazam yo‘nalishlarni ochishning strategik mezonlari va jarayonlari muhokama qilindi. Bundan tashqari, ishtirokchilar zamonaviy havo kemalarini xarid qilishning nozik jihatlari, kreditlash va lizing shartnomalarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, parvozlar xavfsizligini ta’minlashning fundamental asoslariga to‘xtalib o‘tdilar.



Yoshlarga murojaat qilar ekan, Shuxrat Xudaykulov aviakompaniyaning muvaffaqiyati ulkan mexanizmning uyg‘un ishlashiga asoslanishini, bunda har bir xodim – uchuvchilar va bortkuzatuvchilardan tortib, strateglar, tijorat boshqarmasi va Parvozlarni boshqarish markazi mutaxassislarigacha muhim ekanligini ta’kidladi.



“Aviakompaniyada kimdir ahamiyati kamroq, boshqasi esa muhimroq ish bajaradi, degan gap yo‘q. Bizning aviakompaniyamizda yagona maqsad bor, u ham bo‘lsa – xavfsiz parvozlar”, – deya qayd etdi Boshqaruv raisi.



Uchrashuv yakunida munozaraning eng faol ishtirokchilari milliy aviatashuvchi tomonidan esdalik brend sovg‘alariga ega bo‘lishdi. Rahbariyat talabalarga befarq emasliklari va faolliklari uchun samimiy minnatdorchilik bildirib, aynan shunday ochiq suhbatlar mamlakatimiz aviatorlarining yangi, kuchli avlodini shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratishini ta’kidladi.